

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/3-
SON
ILOVA
TO'PLA
M

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.A.Mamajonov

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida xuquqiy va axloqiy-me'yoriy munosabatlar, o'zaro muloqot madaniyati 544

B.A.Pulatov

Yoshlar tafakkurida harbiy qahramonlik ideallarini shakllantirishda ta'lif-tarbiyaning istiqboldagi vazifalari 547

K.I.Marayimova

Bo'lajak o'qituvchilarni turizm faoliyatiga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlari 551

N.M.O'rinova, G.I.Tillabayeva

Talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetentiligini rivojlantirish usullari 556

D.I.Asqarova

Innovatsion yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarda kreativlikni rivojlantirish omillari 560

M.Q.Jabborova, Sh.D.Raxmatjonov

Maktabgacha yoshdagagi bolalarni psixologik, intellektual va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda ilk davrning o'ziga xos xususiyatlari 567

M.Q.Jabborova

Maktabgacha ta'lif yo'nalishi talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamонавиғи сифатига erishish omillari 570

FALSAFA**A.A.Qambarov**

"Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari" konsepsiyasini amalga oshirishda diniy qadriyatlar omilining innovatsion xususiyatlari 577

I.M.Arzimatova

Boshqaruv kadrlari faoliyatida ma'naviyatning o'mi 581

D.E.Normatova

Sharq ilk uyg'onish davri va uning ilmiy-falsafiy mohiyati 586

I.A.Asatulloev

Karl Yung qalb konsepsiyasida sharq va g'arb xalqlari m'a'naviy hayotining qiyosiy tahlili 591

T.Y.Bakirov, S.A.Soxibov

Korrupsiaviy munosabatlarni oldini olishning falsafiy-analitik tahlilining ta'limi jihatlari 595

S.S.Evatov

Kalom ilmining vujudga kelishi va uni islomdagi aqidaviy masalalarni o'rganishdaga o'mi 600

I.Y.Toirov

Sivilizatsiya masalalarining nazariy - metodologik jihatlarini o'rganish muammolari 604

A.M.Rasulov

Axborot va axborot makoni tushunchasi, ularning falsafiy tahlili 608

A.A.Sayitxonov

Jamiyat va shaxs rivojida qadriyatlarning o'mi 612

F.A.Yuldashev

Socio-philosophical analysis of categories of needs and interests 616

S.P.Tojiboyev

Boshqaruv kadrlarining axloqiy madaniyati va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlili 622

B.X.Mirzraximov, B.T.Shokirov

Yoshlarda axborot madaniyatini shakllantirishning asosiy mezonari 628

M.A.Abduxamidov

Sovetlarning O'zbekistondagi masjidlarga munosabatining tahlili 632

SIYOSAT**J.A.Dadaboyeva**

Farzandlikka olishni bekor qilish asoslari 635

A.A.Ganiyev

Yangi iqtisodiy siyosat sharoitida O'zbekiston qishloq xo'jalik kooperativlari faoliyati 640

TARIX**B.A.Usmonov**

"Sohibqiron" atamasining kelib chiqishi va ma'nosiga oid fikrlarga bir 645



**МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ЙО'NALISHI TALABALARINI PEDAGOGIK FAOLIYATGA
ТАҮҮОРЛАШНЫН ЗАМОНАВИЙ СИФАТИГА ЕРИШИШ ОМИЛЛАРЫ.**

**ФАКТОРЫ ДОСТИЖЕНИЯ СОВРЕМЕННОГО КАЧЕСТВА ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ
ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ ДОШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ.**

**FACTORS OF ACHIEVING THE MODERN QUALITY OF PEDAGOGICAL ACTIVITY OF
STUDENTS OF PRESCHOOL EDUCATION.**

Jabborova Marifat Qodiraliyevna

Farg'onan davlat universiteti, Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Maktabgacha ta'llim tizimini rivojlantirishning asosiy sharti kasbiy tayyorgarlikga ega pedagog kadrlarning tayyorlashdir. Talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaiviy sifatiga erishish uchun shart-sharoitlarni yaratish, yangi pedagogik g'oyalami qabul qilish va rivojlantirishning asosiy sharti sifatida bo'lajak tarbiyachining ichki pozitsiyasini, uning qiymat-semantik ta'rifini o'zgartirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Аннотация

Основным условием развития системы дошкольного образования является подготовка педагогических кадров, обладающих профессиональной компетентностью. Важно создать необходимые условия для достижения современного качества подготовки студентов к педагогической деятельности, разработать педагогические технологии, направленные на изменение внутренней позиции будущего педагога, его социально-смыслового определения как основного условия принятия и развитие его педагогических идей.

Abstract

The main condition for the development of the preschool education system is the training of teaching staff with professional competence. It is important to create the necessary conditions for achieving modern quality of preparation of students for teaching activities, to develop pedagogical technologies aimed at changing the internal position of the future teacher, his social and semantic definition as the main condition for the acceptance and development of his pedagogical ideas.

Kalit so'zlar: qiymat-semantik, individual, ehtiyoj-motivatsiya, attestatsiya, ichki pozitsiya, kommunikativ nutq, konstruktor, metaprofessional, tendentsiya, funktsiya.

Ключевые слова: социально-смысловой, личность, потребностно-мотивационная, аттестация, внутренняя позиция, коммуникативная речь, конструктор, метапрофессионал, тенденция, функция.

Key words: social-semantic, personality, need-motivational, certification, internal position, communicative speech, constructor, meta-professional, tendency, function.

KIRISH

Hozirgi vaqtida maktabgacha yoshdagagi bolaning rivojlanish qonuniyatlarini, uning jinsi, yoshi va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik jarayonni tashkil qilishni biladigan mutaxassisiga jamiyat, ayniqsa, oilaning talablari ortib bormoqda. Shuni hisobga olgan holda, o'tgan davrda Maktabgacha ta'llimni rivojlantirish va samarali faoliyat ko'satishga qaratilgan qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi hamda kompleks chora tadbirlar amalga oshirildi [1].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha ta'llim tizimini rivojlantirishning asosiy sharti kasbiy tayyorgarlikga ega pedagog kadrlarning tayyorlashdir. Shu munosabat bilan bo'lajak tarbiyachilarini pedagogik faoliyatiga tayyorlashda quyidagilar zarur:

- bo'lajak tarbiyachilarining kasbiy tafakkurini rivojlantirishda ehtiyoj-motivatsiya sohasini shakllantirish maqsadida oliy ta'llim muassasalarida mutaxassislarini psixologik-pedagogik tayyorlash mazmunini yangilash;

PEDAGOGIKA

- talabalarni shaxsga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlар sharoitida ishlashga qodir, mактабгача та'lимнинг түрли моделлари хусусиятларини hisobga олган holda bolalar bilan pedagogik ishlarni tashkil etish usullari va uslublarini biladigan darajada pedagogik faoliyatga tayyorlash;
- bo'lajak tarbiyachilarni ijodiy o'sishi, o'z ustida ishlashi, o'z vaqtida malaka oshirishi va attestatsiyadan o'tkazish uchun shart-sharoitlarni ta'minlash.[11,21]

Shuningdek, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlashning zamonaviy sifatiga erishish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, yangi pedagogik g'oyalarni qabul qilish va rivojlantirishning asosiy sharti sifatida bo'lajak tarbiyachining ichki pozitsiyasini, uning qiymat-semantik ta'rifini o'zgartirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqish kerak.[4,3]

NATIJA VA MUHOKAMA

Tarbiyachining pedagogik mahorat darajasi, uning kommunikativ nutq malakasi, tarbiya va ta'lim jarayonida bola bilan tegishli maqsadga muvofiq munosabatlarni o'matishga psixologik tayyorligi bir tomondan, tarbiya va ta'lim jarayonining yuqori samaradorligini ta'minlasa, boshqa tomondan, mактабгача та'lим tashkilotining ta'lim muhitining xavfsizligini ta'minlaydi.

Kommunikativ nutq jarayoni bizning butun hayotimizga hamroh bo'ladi, kundalik vaziyatlarda inson u yoki bu sabablarga ko'ra faol kommunikativ nutqqa kirishadi. Kommunikativ nutqni shartli ravishda axborot va maqsadli turga bo'lish mumkin [6].

Axborot kommunikativ nutq aloqaning asosiy motivi, axborot almashinuvidir.

Maqsadli kommunikativ nutq kasbiy faoliyatni amalga oshirish bilan bog'liq.

Shuningdek, biz bo'lajak tarbiyachining kasbiy faoliyatidagi kommunikativ nutqi har doim maqsadli muloqot degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Kasbiy kommunikativ nutq o'z mazmuni va maqsadiga ko'ra ko'p funktsiyalidir. Psixologik nuqtai nazardan, kasbiy kommunikativ nutqning quyidagi belgilari ajralib turadi:

- kommunikativ maqsad — uning tashuvchilari o'ttasida axborot almashinuvi;
- interaktiv maqsad — professional aloqada ishtirokchilarning o'zaro ta'siri;
- perceptiv maqsad — professional ma'lumotni idrok etishdir. [12]

Demak, bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik tayyorgarligini takomillashtirish imkoniyatlari tarbiyachi va bolaning kommunikativ muloqoti natijadorligiga ta'sir ko'rsatuvchi ilmiy va nazariy shart-sharoitlarni dastlabki salohiyatlari tayyorgarlikka moslashtirish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, mактабгача та'lим tizimining samaradorligi to'g'ridan-to'g'ri tarbiyachining kommunikativ muloqot qobiliyatlar darajasiga, pedagog nutqini bola yetarli darajada idrok etishi, qabul qilishi, tushunish va qo'llab-quvvatlash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi. Shakllangan kommunikativ nutq uslubi o'quv va tarbiyaviy vazifalarni samarali amalga oshirishga, tarbiyachi va bola o'ttasida ishonchli munosabatlarni muvaffaqiyatl o'matishga yordam beradi [5].

Oliy ta'limda bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash tizimida yangi talablarning amalga oshirilishi ta'lim tamoyilining prinsipial yangi konstrukturlar: kompetensiylar va metaprofessional sifatlarni shakllantirishda ko'rinadi [4]. Ushbu konstrukturlarning o'qitish mazmuniga kiritilishi bilim va malakalarning taktik ta'lim bo'linmalari darajasiga o'tishini, kompetensiya va malakalarning esa strategik tushunchalariga aylanishini anglatadi. Foydalanish doirasi keng bo'lgan bunday konstrukturlar aniq ifodalangan amaliyotga yo'naltirilgan, faoliyat yo'nalishiga ega bo'lib, haqiqatan ham mutaxassislarning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

XULOSA

Oliy ta'limda bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlashda ta'lim jarayonining bugungi kundagi yuqorida ko'rsatilgan imkoniyatlardan foydalanish orqali, mактабгача та'lим tashkiloti tarbiyachisi kasbi asta-sekin harakatchanlikning eng yuqori darjasasi bilan tavsiflangan toifaga o'tadi. Bo'lajak tarbiyachilarning pedagogik kompetentlarini rivojlantirish mezonlari, to'plangan bilim va ko'nikmalarini qo'llash tarbiyachilarni pedagogik tayyorgarligini takomillashtiradi.

Xulosa qilib aytganda bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va o'qitish tizimi yuqori darajada bo'lishi kerak, ya'ni pedagogik ta'lim olishdan boshlangan va butun tarbiyachilik faoliyatida davom etadigan o'quv va amaliy tajriba to'plashning izchil birlashgan tizimidan foydalanishi, shuningdek, zamonaviy pedagog tarbiyachi mактабгача та'lимning ijtimoiy-iqtisodiy tendentsiyalari talab qiladigan yangi funktsiyalarni o'zlashtira olishi kerak.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-sentyabrdagi "Mактабгача та'lим tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3261 sonli Qarori.

2. Jabborova, M. (2021). The importance of innovative technologies in the social development of society. Экономика и социум, (6-1), 129-132.
1. Jabborova, M. (2021). Maktabgacha ta'limim so'hasi talabalariida
2. bo'shkaruvchaniq qobiliyatlariini rivojlanтириш. Молодой ученый, (17), 394-395.
3. Jabborova, M. (2022). Bo'lajak pedagoglarni tayyorlash tizimida malakaviy amaliyotning roli. Scientific progress, 3(4), 167-173.
4. M.Q.Jabborova Bo'lajak tarbiyachilarni pedagogik faoliyatiga tayyorlash ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida TDPU ilmiy xabarlar. 2022\ 12-son ISSN 2181-9580 (13.00.00 №32)
5. M.Q.Jabborova The impotance of communicative speech in impoving the pedagogical training of future educators. «Science and innovation» International scientific journal volum 2 issue 2 February 2023 uif-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337 | scientists.uz8f-2022: 8.2 | issn: 2181-3337 https://doi.org/ 10.5281/zenodo.768257.
6. Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat Standarti. Toshkent sh., 2020-yil 22-dekabr, 802-son
7. "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr 2022
8. Djamilova N.N Maktabgacha ta'limda metodika fanlarini o'qitish texnologiyasi. O'quv Qo'llanma
9. Жабборова М.К "Мактабгача таълимда инновацион ёндашув" "Самарқанд вилоятини инновацион ривожлантириш муаммо ва ёчимлар". -79-81, 2020-yil.
10. Jabborova Marifat "The role of activity in the process of education and upbringing of preschool children" Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 12, Issue 1, January 2023 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal
11. Kulyutkin Yu. N.: Tvorcheskoe mishlenie v professionalnoy deyatelnosti uchitelya 86'2 s.21
12. Mitina L. M. Psixologiya professionalnogo razvitiya uchitelya. M.: Flinta; MPSI, 1998. 200 s